

5-May, 2026-yil

**MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILAR VA HARBIY XIZMATNI  
O‘TAYOTGAN YOSHLARGA IMTIYOZ VA KAFOLATLAR BERILADI**

*Kattaqo‘rg‘on shahar yuridik*

*xizmat ko‘rsatish markazi*

*bosh yuristkonsulti*

**Sag‘dullayev Elbek G‘ayratjon o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlar safida muddatli harbiy xizmatni o‘tash va jozibadorligini oshirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida 07.04.2026 yildagi PQ-134-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun chaqirilgan fuqarolar uchun quyidagi imtiyoz va kafolatlar beriladi:

2026/2027 o‘quv yilidan boshlab:

muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlarga (keyingi o‘rinlarda — askarlar) xizmatni o‘tash davrida oliy ta‘lim tashkilotlari bakalavriyatining masofaviy ta‘lim shakliga abituriyent sifatida ro‘yxatdan o‘tish, kirish imtihonlarida ishtirok etish va natijasiga ko‘ra o‘qishga kirishga ruxsat beriladi. Bunda oliy ta‘lim tashkilotlariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilingan askarlarga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli ta‘lim krediti ajratiladi;

muddatli harbiy xizmatni o‘tash davrida oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilingan askarlar oliy ta‘lim tashkilotlarining harbiy tayyorgarlik o‘quv markazlarida o‘qigan talabalarga tenglashtiriladi va o‘qishni tamomlagandan so‘ng ularga belgilangan tartibda “zaxiradagi leytenant” harbiy unvoni beriladi;

muddatli harbiy xizmatni namunali o‘tagan, respublika va xalqaro sport musobaqalarida yoki fan olimpiadalarida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan askarlar orasidan 100 nafari tanlov asosida saralanib, oliy harbiy va oliy harbiylashtirilgan ta‘lim muassasalariga dastlabki saralash va maxsus kasbiy tanlov natijalariga ko‘ra test sinovlarisiz yoki yakka tartibdagi yakuniy suhbatsiz belgilangan yillik kvota doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qishga qabul qilinadi.

Bunda tanlov asosida saralab olinadigan 100 nafar askarlar tegishli vazirlik va idoralar o‘rtasida ular tarkibida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlarning umumiy soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi hamda o‘zlari muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan (o‘tagan) vazirlik va idoralar tarkibidagi hamda ular uchun ofitserlarni tayyorlovchi oliy harbiy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilinadi;

muddatli harbiy xizmatni o‘tash davrida Olimpiya va Osiyo o‘yinlari dasturlariga kiritilgan sport turlari bo‘yicha respublika hamda xalqaro musobaqalarda 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan askarlar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga (mos yo‘nalishlarga) kirish sinovlarisiz davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi;

5-May, 2026-yil

askarlarning qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib, harbiy qismlarda kasbga o‘qitish bo‘yicha guruhlar shakllantiriladi hamda askarlarni kamida bitta kasbga o‘qitish bo‘yicha olti oygacha bo‘lgan muddatda o‘quv kurslari tashkil etiladi. Bunda o‘quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagan askarlarga davlat namunasidagi sertifikat beriladi;

muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan hamda xizmatdan bo‘shatilgan yilda oliy ta‘lim tashkilotlarida o‘qish istagini bildirgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikati xarajatlari “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi;

muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan va xususiy sektorda faoliyat yuritish istagini bildirgan yoshlarga kasb-hunarga o‘qish xarajatlari vaucher asosida belgilangan tartibda Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi;

muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoshlarga kredit foizi xarajatlari qonunchilikda belgilangan tartibda qoplab beriladi;

2027-yil 1-apreldan boshlab muddatli harbiy xizmatni o‘tagan yoshlarga davlat organlari va tashkilotlariga ishga kirishda test sinovlari natijalariga ko‘ra o‘zlari to‘plagan ballning 10 foizi miqdorida qo‘shimcha ball shaklidagi imtiyoz beriladi.

*2026-yil 1-sentabrdan boshlab muddatli harbiy xizmatni o‘tash davrida oliy ta‘lim tashkilotlariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilingan askarlarga qonunchilikda belgilangan tartibda o‘qishning birinchi yili uchun Ta‘lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta‘lim krediti ajratiladi.*

2026-yil may oyidan boshlab askarlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali ularning orasidan kasb egallash va oliy ta‘lim tashkilotiga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar aniqlanadi;

askarlarni kasbga o‘qitishni samarali tashkil etish maqsadida harbiy qismlarga yaqin hududdagi texnikumlarga ushbu harbiy qismlar birlashtiriladi. Bunda askarlarni kasbga o‘qitishga texnikumlarning pedagog kadrlari jalb qilinadi.

2026-yil 1-maydan boshlab askarlarni kasbga o‘qitishga jalb etilgan pedagoglarga mashg‘ulotlarni o‘tkazganlik uchun soatbay asosida ish haqi to‘lanadi;

*askarlarga oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirish uchun test sinovlari umumiy tartibda, har yil O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi qarori asosida belgilanadigan muddatlarda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladi.*

## **Davlat xaridlarida raqobat muhiti yaratiladi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xaridlarida raqobat muhitini va shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida 26.12.2025 yildagi PF-259-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda Davlat buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarining qulay, zamonaviy va servisga yo‘naltirilgan ekotizimini yaratish va unga sun‘iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish davlat xaridlari sohasida Iqtisodiyot va moliya vazirligining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

# “DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

2030-yilgacha davlat xaridlari sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

(a) davlat xaridlarida raqobatli usullardan foydalanish darajasini 80 foizga yetkazish;

(b) davlat xaridlarida iqtisod qilingan mablag' miqdorini 25 trln so'mga yetkazish;

(v) tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi faolligini ikki karra oshirish;

(g) davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarda mahalliy mahsulotlar ulushini kamida 85 foizga yetkazish;

(d) davlat buyurtmachilarining xaridlar uchun mas'ul bo'lgan malakasi oshirilgan xodimlari ulushi 98 foizdan kam bo'lmasligini ta'minlash.

2026-yil 1-martdan boshlab davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida davlat xaridi predmetining o'rtacha bozor narxini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modul ishga tushirilsin.

davlat buyurtmachisi davlat xaridini amalga oshirishdan oldin davlat xaridlari predmetining o'rtacha bozor narxini modulda shakllantiradi. Bunda:

(a) davlat xaridlari predmetining boshlang'ich narxi yoki shartnoma bahosi va uning moduldagi o'rtacha bozor narxi o'rtasidagi tafovut 10 foizdan ortiq yoxud 20 foizdan past bo'lsa, ushbu xaridlar davlat xaridlari sohasidagi davlat nazorati organlari tomonidan birinchi darajada tekshiriladigan yuqori xavf-xatar sifatida baholanadi va navbatdan tashqari tekshirish o'tkazish uchun asos bo'ladi;

(b) to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xaridlar moduldagi xarid predmetining o'rtacha bozor narxidan oshmagan holda amalga oshiriladi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat xaridi predmetining o'rtacha bozor narxini aniqlash tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi va Bosh prokuraturaning 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat xaridlarida raqobatli usul orqali ayrim turdagi tovarlarni xarid qilishning “taklif so'rovi” yangi tartib-taomilini joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik beriladi.

Davlat buyurtmachilari tomonidan “taklif so'rovi” orqali xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar ro'yxati tasdiqlandi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab:

(a) To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati bekor qilinib, mazkur ro'yxat bo'yicha davlat xaridlari raqobatli usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi, bundan “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

(b) “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat berish haqida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda davlat xaridi ijrochisining nomi aniq ko'rsatiladi. Davlat xaridi ijrochisining nomi aniq ko'rsatilmagan taqdirda, ushbu xaridlar “taklif so'rovi” xarid qilish tartib-taomili orqali amalga oshirilishi nazarda tutiladi;

5-May, 2026-yil

(v) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishni nazarda tutuvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Adliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining tartibga solish ta‘sirini baholash hamda Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining raqobat muhitiga ta‘sirini baholash natijalari asosidagi xulosalari mavjud bo‘lsa, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ekspertiza o‘tkazilgan taqdirda, belgilangan tartibda qabul qilinadi;

(g) davlat xaridlarida elektron do‘konga ofertalarni joylashtirish muddati 15 kundan 60 kungacha uzaytiriladi hamda tovarlarni yetkazib berish muddati kamida 5 kun etib belgilanadi;

(d) Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazida xarid hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish muddatlari ularning qiymati va murakkabligidan kelib chiqib qisqartiriladi.